

QO'QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA  
PEDAGOGY

## BOSHLANG'ICH SINIF NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

*Berdikulova Charos Alikulovna*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti*

[charosberdikulova@gmail.com](mailto:charosberdikulova@gmail.com)

+998938871087

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf nutqida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari masalalari tahlil etilgan. Hozirgi bosqichda boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilar nutqiy nuqsonlarining paydo bo'lish sabablari, ularning turlari va o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish omillari yoritilgan. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar, interfaol usullar hamda ilg'or xorij tajribasi tahlil qilinib, zarur taklif-tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** defektologiya, logopediya, nutq nuqsonlari, nutqiy kompetensiya, nutqni korreksiyalash, dizartriya, disleksiya, disgrafiya, afaziya, bradilaliya, dialogik nutq, monologik nutq, interfaol usullar.

## ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ДЕФЕКТАМИ РЕЧИ

**Аннотация:** В статье анализируются вопросы технологий развития речевых компетенций учащихся младших классов с нарушениями речи. На современном этапе обсуждаются причины возникновения речевых нарушений у учащихся системы начального образования, их виды, факторы развития речевых компетенций у учащихся. В статье анализируются современные подходы, интерактивные методы и передовой зарубежный опыт развития речевых компетенций учащихся младших классов, даются необходимые предложения и рекомендации.

**Ключевые слова:** дефектология, логопедия, нарушения речи, речевая компетентность, коррекция речи, дизартрия, дислексия, дисграфия, афазия, брадилалия, диалогическая речь, монологическая речь, интерактивные методы.

## TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING SPEECH COMPETENCES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS WITH SPEECH DEFECTS

**Abstract:** The article analyzes the issues of technologies for developing speech competencies of primary school students with speech disorders. At the present stage, the causes of speech disorders in students of the primary education system, their types, and factors in developing speech competencies in students are discussed. The article analyzes modern approaches, interactive methods, and advanced foreign experience in developing speech competencies of primary school students, and provides the necessary suggestions and recommendations.

**Key words:** defectology, speech therapy, speech disorders, speech competence, speech correction, dysarthria, dyslexia, dysgraphia, aphasia, bradylalia, dialogic speech, monologue speech, interactive methods.

### **KIRISH.**

Bugungi kunda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning aqliy va nutqiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Nutq insonning fikrlash faoliyatini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning ijtimoiylashuv ko‘nikmalari va muloqot qobiliyatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois, nutqiy nuqsonlarga ega bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan logopedik va pedagogik ishlarning samaradorligini oshirish nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda inklyuziv ta’lim va logopediya-defektologiya sohasida bir qator qonunlar, qaror va farmonlar qabul qilindi. Bu yo‘nalishda Prezident Shavkat Mirziyoevning ham bir qator muhim tashabbuslarini e’tirof etish joiz. So‘nggi yetti yilda ilk bor 530 ta maktabda inklyuziv ta’lim yo‘lga qo‘yildi[1]. Shuningdek, yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun bilan inklyuziv ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsad qilindi. Ushbu qonunning 5-moddasida – ta’limning asosiy tamoyillari, shu jumladan, tenglik va inklyuzivlik tamoyillari belgilandi. Qonunning 16-moddasida – nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olish huquqi ta’minlanishi va ular uchun maxsus sharoitlar yaratilishi nazarda tutildi[2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan nogiron bolalarning umumta’lim maktablarida ta’lim olishi, ular uchun maxsus sharoitlar yaratilishi va o‘qituvchilarni malakasini oshirish kabi masalalar ko‘zda tutish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilandi[3].

Umumiy o‘rta ta’limning hozirgi bosqichida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining umumta’lim tayyorligining mazmuni va darajasiga bo‘lgan talablar ancha ortdi. Masalan, «O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizom»da qayd etilganidek, «Umumiy o‘rta ta’lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik kabilarni va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yunaltirishga

va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi»[4]. Buni esa bolalarning nutqini o‘stirmasdan turib amalga oshirib bulmaydi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.**

So‘nggi yillarda nutqiy nuqsonlarga ega bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erta yoshda aniqlangan va to‘g‘ri yondashuv orqali tuzatilgan nutqiy muammolar keyinchalik o‘quvchilarning muloqot qobiliyatlari va ta’limni o‘zlashtirish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, uzluksiz pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalar, zamonaviy o‘yin metodlari va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish orqali nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Nutqiy rivojlanish bilan bola ruhiyati o‘rtasidagi uzviy bo‘liqlik ko‘pgina olimlar tomonidan isbotlab berilgan. L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.R.Luriya va boshqa mualliflarning ko‘rsatishicha, boladagi barcha ruhiy jarayonlar: idrok, xotira, diqqat, tasavvur, tafakkur nutq jarayonining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtiroki bilan rivojlanadi. Nutq yordamida bola nafaqat yangi ma’lumotlarni oladi, balki ularni yangicha talqin qilish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi.

Qator mualliflar olib borgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, bolalarda turli xil nutqiy nuqsonlar kuzatiladi. N.A.Bernshteyn, M.O.Gurevich (1949), N.I.Ozeresskiy (1938), M.B.Edinova (1959), E.N.Vinarskaya (1959)larning fikricha, bolalarda kuzatiladigan nutqiy kanchiliklar talaffuz kamchiliklaridan to afaziyagacha bo‘lgan shakllarda uchrashi mumkin.

S.S.Lyapidevskiy va B.M.Grinshpuning fikricha ortda qolgan nutq rivojlanishining birinchi darajasiga ega bo‘lgan bolalarning logopedik xususiyatlariga quyidagilarni misol qilganlar: “Nutqiy rivojlanish keskin kechikadi. Gapirish nutq davri ko‘pincha yo‘q. Bola uch-to‘rt yoshida alohida bo‘g‘in yoki oddiy so‘zlarni talaffuz qila boshlaydi. So‘zli nutq o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. G.V.Matsievskayaning ta’kidlashicha “... tovush hosil qilishning kech rivojlanishi, so‘z boyligining chegaralanganligi, talaffuzdagi va tuzatish qiyin bo‘lgan agrammatizm xarakterlidir”[5].

Nutq buzilishlaridan hisoblangan dizartriya muammolarini tadqiq qilib, uning tasniflarini ishlab chiqqan olimlardan M.S.Margulisning etiopatogenetik tasnifnomasi, I.I.Panchenko, L.A.Shcherbakovalarning nevrologik tasnifnomasi E.N.Vinarskayaning neyrologistik tasnifnomalarini e’tirof etish mumkin.

Og‘ir nutq nuqsoni sifatida dizartriyaning turli shakllarda namoyon bo‘lishiga ko‘pgina mualliflar o‘z e’tiborini qaratgan. V.A.Muratovning qayd etishicha, bolalar serebral falajida dizartriya spastik va paretik xarakterda bo‘ladi. S.A.Chugunov, N.Gutsmann va M.M.Prismanning fikriga ko‘ra, bolalar serebral falaji, odatda, giperkinezlar bilan birga namoyon bo‘ladi, ular hozirda dizartriyaning giperkinetik deb nomlanuvchi shaklini ta’riflab berganlar.

D.N.Isayev, I.V.Ippalitova, E.M.Mastyukova, T.B.Filicheva aqli zaif (gidrotsefaliyal) bolalarda dizartriyaning namoyon bo‘lishini tadqiq etgan.

I.Y.Levchenko, O.G.Prixodko, L.V.Lopatina ishlarida bolalar serebral falajidagi ruhiy buzilishlarning asosiy turlari og‘ir nutqiy kamchiliklar (50%gacha) bo‘lib, ruhiy dizontogeneznining kechikkan rivojlanish yoki kam rivojlangan turi bo‘yicha namoyon bo‘lishi qayd eilgan.

Nutqiy rivojlanish bo‘yicha yetakchi olimlardan biri Ye.D.Bojovich o‘z tadqiqotlarida nutqiy nuqsonlarning psixolingvistik asoslarini yoritib bergan bo‘lib[6], ularning tuzatish metodikalariga alohida e‘tibor qaratgan. Shuningdek, A.R.Luriya nutqning rivojlanishi va unda miyaning funksional tizimlari bilan bog‘liqligini o‘rganib, ta‘lim jarayonida logopedik yondashuvlarning ahamiyatini ta‘kidlagan[7]. Ushbu ilmiy yondashuvlar tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida empirik, nazariy va eksperimental hamda so‘rov va kuzatuv usullaridan foydalanildi. Empirik usullar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida nutqiy nuqsonlarning mavjudligi va ularning ta‘lim jarayonidagi ta‘siri o‘rganildi. Nazariy tadqiqot doirasida nutqiy kompetensiyani shakllantirishga oid ilg‘or xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Eksperimental tadqiqot esa nutqiy muammolarga ega o‘quvchilar bilan olib borilgan maxsus mashg‘ulotlar, logopedik treninglar va innovatsion texnologiyalar asosida olingan natijalarni tahlil qilishga qaratildi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA.**

Nutqiy nuqsonlar bolalarning o‘quv jarayoniga, muloqot qilish qobiliyatiga va umumiy rivojlanishiga sezilarli darajada ta‘sir qiladi. Ular turli omillar natijasida yuzaga keladi va har xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Eng ko‘p uchraydigan nutqiy nuqsonlarga – dizartriya, disleksiya, disgrafiya, afaziya, bradilaliya va tahlil etuvchi nutq buzilishlari kiradi. Dizartriya – nutqning artikulyatsion, fonatsion va ritmik intonatsion tomonlariga ta‘sir qiluvchi harakat buzilishi hisoblanadi. Disleksiya – o‘quv jarayonida yuzaga keladigan maxsus buzilish bo‘lib, asosan nevrologik omillar bilan bog‘liq hisoblanadi. Disgrafiya – yozma nutq buzilishi bo‘lib, harflarni noto‘g‘ri yozish, grammatik xatolarga yo‘l qo‘yish va so‘z tuzilishini to‘g‘ri aks ettira olmaslik bilan tavsiflanadi. Afaziya – miya shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan nutqning qisman yoki to‘liq yo‘qolishidir. Bradilaliya – nutqning juda sekinlashishi nuqsonidir. Tahlil etuvchi nutq buzilishlarida bola so‘zlarni yoki gaplarni tuzishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Shuningdek, nutq nuqsonlari quyidagi turlarga bo‘linadi: til fonetik nuqsonlari (tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish); leksik-grammatik nuqsonlar (so‘z boyligi va grammatik qoidalarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar); nutqning ritmik-temp nuqsonlari (nutqning sekin yoki haddan tashqari tezligi) hamda nutqning mazmuniy nuqsonlari (fikrlarni mantiqiy ifodalashdagi qiyinchiliklar).

Nutq nuqsonlarini yuzaga keltiruvchi sabablar sifatida – genetik omillar, tug‘ma nuqsonlar, psixologik stress, oilaviy muhitning ta‘siri va nutq rivojiga etarlicha e‘tibor berilmasligi kabilar kiradi.

Nutqiy nuqsonlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun erta tashxis qo‘yish, individual logopedik yondashuv, terapevtik mashg‘ulotlar va maxsus ta‘lim texnologiyalaridan

foydalanish muhim ahamiyatga ega. Har bir nutqiy nuqson o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni davolash va tuzatish ishlari individual ravishda olib borilishi lozim.

Nutq o‘quvchilarning aqliy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan nutqiy muammolar ko‘p jihatdan biologik, psixologik va ijtimoiy omillarga bog‘liq. Bunday muammolarni erta aniqlash va ularning oldini olish choralari ko‘rilsa, bola nutqining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish mumkin. Oilaviy muhitni yaxshilash, pedagogik yondashuvlarni rivojlantirish va logopedik yordamni ta‘minlash orqali bolalarning nutqiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirishga erishish mumkin.

Biologik omillar bolalarning nutq rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Ularga genetik moyillik, tug‘ma nevrologik buzilishlar hamda ona homiladorligidagi nojo‘ya omillar kiradi. Psixologik omillarga esa ijtimoiy muhitning yetarli emasligi, stress va ruhiy jarohatlar, e‘tibor yetishmovchiligi yoki ortiqcha e‘tibor kabilarni kiritishimiz mumkin. Ijtimoiy va pedagogik omillarga nutqiy stimullarning yetishmovchiligi, ikki yoki undan ortiq tilda so‘zlashadigan muhit hamda maktabgacha ta‘limning yetarli emasligi sabab bo‘lishi mumkin.

Nutqiy kompetensiya – bu insonning til vositasida muloqot qilish, axborotni tushunish va uzatish qobiliyati bo‘lib, u fonetik, grammatik, leksik va pragmatik kabi tarkibiy qismlarga ega. Bunda: fonetik kompetensiya – tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va eshitish orqali farqlash qobiliyati; grammatik kompetensiya – gaplarning tuzilishini to‘g‘ri shakllantirish va sintaktik qoidalarga rioya qilish; leksik kompetensiya – so‘z boyligi, so‘zlarning ma‘nosi va ularning qo‘llanish doirasini tushunish hamda pragmatik kompetensiya – nutqni kontekstga mos holda ishlatish, muomala strategiyalarini to‘g‘ri tanlash bilan tavsiflanadi.

Nutqiy kompetensiya rivojlanishi quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:

boshlang‘ich bosqich (0-2 yosh) – bola tovushlarni eshitish va taqlid qilish orqali nutqning dastlabki elementlarini o‘rganadi;

rivojlanish bosqichi (2-4 yosh) – lug‘at boyligi kengayadi, grammatik tuzilmalardan foydalanish boshlanadi;

mustahkamlash bosqichi (4-6 yosh) – bola muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi, murakkab gaplarni qo‘llay boshlaydi;

maktabga tayyorgarlik bosqichi (6-7 yosh) – nutqiy qobiliyatlar muhitga moslashadi, muloqot aniq va tushunarli bo‘ladi.

Nutqida nuqsoni mavjud boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun: logopedik mashg‘ulotlar va individual yondashuvlar; innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalar; interfaol dasturlar va mobil ilovalar; multimediya va AKT yordamida nutqni rivojlantirish kabi yondashuvlar samarali hisoblanadi.

Kichi maktab yoshidagi o‘quvchilar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati va muloqoti bilan uzviy bog‘liqdir. Bola jumalarning mazmuni va shaklidagi o‘zgarish uning muloqot shakllari o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo‘naltirilgan va nosituativ – shaxsiy muloqot shakliga o‘tilishi bolalar nutqiga ma‘lum bir talablarni qo‘yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi

tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni hal qilishi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi.

Kichik maktab yoshidagi bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so‘z-lug‘at boyligining o‘shida 2 ta muhim tomon - miqdor va sifat tomonlari mavjud. Lug‘at boyligining miqdoriy o‘shisi D.B.Elkoninning ko‘rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog‘liq. So‘nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug‘at tarkibini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq miqdoriy ko‘rsatkichlar aniqlandi.

Nutqida nuqsoni mavjud boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda xorijda ilg‘or tajribalar keng qo‘llanilmoqda. Bu tajribalar asosan inklyuziv ta‘lim, logopedik yordam va texnologiyalardan foydalanishga asoslangan.

Xususan, Finlyandiya va Kanada kabi mamlakatlarda inklyuziv ta‘lim tizimi rivojlangan. Bu tizimda nutqida nuqsoni mavjud bolalar oddiy sinflarda o‘qiydi va maxsus yordam ko‘rsatiladi. AQSh va Germaniyada logopedik yordam tizimi yuksak darajada rivojlangan. Maktablarda maxsus logopedlar ishlaydi va bolalarga nutqni to‘g‘rilash, mantiqiy fikrlash va muloqot qobiliyatini oshirish bo‘yicha mashqlar o‘tkaziladi.

Yaponiya va Koreyada nutqida nuqsoni mavjud bolalar uchun maxsus dasturlar va qurilmalar ishlab chiqilgan. Masalan, nutqni tozalashga yordam beradigan mobil ilovalar, audio-vizual vositalar shular jumlasidan. Shvesiya va Norvegiyada nutq nuqsonlarini bartaraf etishda oila va jamiyatning faol ishtiroki ta‘minlanadi. Ota-onalarga maxsus treninglar o‘tkaziladi.

Logopedik mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning nutq qobiliyatlari yaxshilanadi. Maxsus individual yondashuv har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlariga mos ravishda amalga oshiriladi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, logopedik terapiya bolalarning talaffuz, leksik va grammatik qobiliyatlarini ancha yaxshilaydi.

Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, interaktiv metodlar, raqamli vositalar va maxsus ilovalar o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, nutq rivojiga yo‘naltirilgan mobil ilovalar va audiovizual materiallar orqali o‘quvchilar nutqiy mashqlarni yanada samarali bajaradilar.

Zamonaviy mobil ilovalar va kompyuter dasturlari o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda keng qo‘llaniladi. Ular orqali o‘quvchilar tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z boyligini oshirish va grammatik qoidalarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Multimedia texnologiyalari, jumladan, video va animatsiyalar, o‘quvchilar nutqini yaxshilashda samarali usul hisoblanadi. Interaktiv doskalar va dasturiy vositalar o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi. Masalan, maxsus logopedik dasturlar bolaning individual nutqiy muammolarini aniqlash va ularni tuzatishga yordam beradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan metodlarning qo‘llanilishi natijasida: o‘quvchilarning talaffuzi va nutqiy aniqligi yaxshilanadi; so‘z boyligi oshadi va grammatik tuzilmani o‘zlashtirish tezlashadi; o‘quvchilar muloqot qilishga nisbatan ko‘proq ishtiyoq bildiradi; nutqiy

muammolarga ega o‘quvchilar ijtimoiy moslashuvni yaxshiroq o‘taydilar hamda kelajakdagi o‘quv jarayoniga tayyorlik darajasi oshadi. Ushbu usullar orqali o‘quvchilarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning jamiyatga moslashuvi va ta’lim jarayoniga tayyorgarligini oshirishga erishish mumkin. Erta aralashuv va individual yondashuv orqali nutqiy qiyinchiliklarni samarali bartaraf etish imkoni mavjud bo‘lib, bu o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta’minlaydi.

Ota-onalar o‘quvchilarning nutq rivojida muhim rol o‘ynaydi. Ular bolalar bilan ko‘proq suhbatlashishi, ularga kitob o‘qishi va nutq mashqlarini muntazam ravishda amalga oshirishi kerak. O‘quvchilarning nutq rivoji muntazam ravishda kuzatilishi va baholanishi kerak. Bu orqali dastur samaradorligi aniqlanadi va zarur bo‘lganda o‘zgartirishlar kiritiladi.

O‘quvchilarni ijtimoiy faol muhitga jalb qilish, ularning do‘stlari bilan suhbatlashishiga imkon yaratish nutq rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Nutq nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishda o‘qituvchilar va ota-onalar quyidagi tavsiyalarga amal qilishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi: individual dasturlar tuzish; zamonaviy texnologiyalardan foydalanish; muntazam monitoring va hamkorlikni rivojlantirish. Shuningdek, logopedlar, psixologlar va ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda ishlash, shuningdek ota-onalar uchun bolalar bilan ko‘proq suhbatlashish, nutq mashqlarini qo‘llash, ijtimoiy muhitni yaxshilash va sabrli bo‘lish tavsiya etiladi.

Nutq kompetensiyasini rivojlantirish sohasida zamonaviy ilmiy-tadqiqot yondashuvlaridan kelib chiqib, kelgusi tadqiqotlar sifatida: zamonaviy texnologiyalarning samaradorligini o‘rganish – virtual reallik, sun’iy intellekt va robototexnika kabi texnologiyalarning nutq rivojiga ta’sirini chuqurroq o‘rganish; uzoq muddatli ta’sirni baholash – nutq rivojini rag‘batlantirish dasturlarining o‘quvchilarning uzoq muddatli ta’limiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish; turli madaniy va ijtimoiy muhitlarda tadqiqotlar olib borish – turli mamlakatlar va madaniyatlarda nutq rivojini rag‘batlantirish usullarini solishtirish; nutq nuqsonlarining psixologik jihatlarini o‘rganish – nutq nuqsonlari o‘quvchilarning psixologik holatiga qanday ta’sir qilishini va bu ta’sirni kamaytirish usullarini o‘rganish kabi yo‘nalishlarda olib borilishi kuzatiladi.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarning dialogik nutqini shakllantirish jarayonida kichik yoshdagi o‘quvchilarga nutq odobi modellarini o‘zlashtirishga katta e’tibor qaratish lozim. O‘quvchilar odob doirasidagi asosiy iboralarni yodda saqlashi, har bir ibora qaysi vaziyatda ishlatilishini bilishi hamda ularni o‘z nutqida to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llay olishi kerak.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalari yetarli darajada shakllangach, o‘yin metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tadqiqotchilar O.A.Dorjokina va V.N.Dronovanning fikriga ko‘ra, syujetli-rolli o‘yin bolalarning o‘z rejalarini hayotga tatbiq etish, his-tuyg‘ularini ifodalash ehtiyojiga javob beradi. O‘yin jarayonida ular yaxshi o‘zlashtirilgan syujetlarni amalga oshirishdan mustaqil ravishda yangi syujetlar qurishga o‘tadilar[8].

O‘yin kichik yoshdagi o‘quvchilar tomonidan eng yaxshi o‘zlashtirilgan faoliyat turi hisoblanadi. U o‘quvchilarning bilish, mehnat va ijodiy faolligini rag‘batlantiradi. Shu munosabat bilan, kichik yoshdagi o‘quvchilarning dialogik ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘yinga (o‘yin harakatlari, o‘yin shakllari, vositalari) tayanish – o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga jalb qilishning eng optimal yo‘li bo‘lib, o‘quv yuklamasiz ta‘lim jarayoniga hissiy javob berishni ta‘minlashning samarali usuli hisoblanadi.

Monologik nutq – nutq faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir, chunki u bolaga o‘z fikrlarini ifoda etish, ma‘lumot yetkazish va muloqotda ishtirok etish imkoniyatini beradi. Biroq, nutqi nuqsonli kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida monologik nutqni rivojlantirish jarayoni qiyin bo‘lib, bu maxsus pedagogik va logopedik yondashuvlarni talab qiladi.

Monologik nutqni shakllantirish – o‘qilgan yoki eshitilgan matnlarni qayta hikoya qilish hamda ko‘rganlari va boshidan kechirganlari asosida mustaqil fikr bildirish bosqichlarida amalga oshirilishi lozim.

Tinglovchilarga mazmunli nutq yetkazish uchun kichik yoshdagi o‘quvchilarga faqat yaxshi bilgan mavzularida gapirish yoki yozish tavsiya etiladi. Ularning hikoyalari o‘zlari yaxshi tushungan faktlarga, shaxsiy kuzatishlariga va hayotiy tajribalariga asoslangan bo‘lishi lozim[9]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda turli xil usullardan. ayniqsa trening mashqlaridan foydalanish samara beradi. Buning uchun nutq materialini assimilyatsiya qilish va real muloqot sharoitida nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek o‘quv maqsadiga javob beradigan nutq kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

### **XULOSA.**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq nuqsonlarini bartaraf etishda yetakchi konseptual asoslar sifatida kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlarga ko‘proq urg‘u berilishi va hisobga olinishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining muloqot ko‘nikmalarining natijalaridan biri –ma‘lum darajadagi nutqiy kompetensiyaning shakllanishi bo‘lib, bu bolalarning to‘liq va mazmunli muloqot qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Belgilangan natijaga erishish dialogik va monologik nutqni, leksik, sintaktik va orfoepik savodxonlikni o‘rgatishning turli texnologiyalari, usullari va shakllarini qo‘llash orqali qayd etish mumkin. Bunda o‘yin texnologiyalari, interfaol usullar va o‘qitish shakllarining xilma-xilligi orqali maqsadga erishish mumkin. Ulardan foydalanish va uyg‘unlashtirish natijasida pedagogik o‘zaro ta‘sirning mazmuni va maqsadiga, bu orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga erishish mumkin.

Nutq kompetensiyasini rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar, individual yondashuv va ota-onalar va o‘qituvchilarning faol ishtiroki bu jarayonni samarali qilish imkoniyatini beradi. Keyingi tadqiqotlar bu sohani yanada rivojlantirish va yangi usullarni ishlab chiqishga yo‘naltirilishi kerak.



Nutqiy nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi ilmiy takliflar samarali bo‘lishi mumkin:

1. Har bir o‘quvchi uchun individual dasturlar ishlab chiqish.
2. Didaktik o‘yinlar va interfaol mashqlardan foydalanish.
3. Multimedia vositalarini nutqni rivojlantirishda qo‘llash.
4. Logopedik mashqlarni muntazam ravishda o‘tkazish.
5. Ota-onalarni nutqni rivojlantirish jarayoniga faol jalb qilish.

Ushbu takliflar nutqiy nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning nutq kompetensiyasini oshirishga yordam beradi va ularning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. <https://president.uz/uz/lists/view/7782>
2. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. <https://lex.uz/docs/-5044711>
4. <https://lex.uz/docs/-3137130>
5. Мацевская, Г.В. Алалия / Г.В. Мацевская И Расстройства речи и голоса в детском возрасте / Под. ред. С.С. Ляпидевского и С.Н. Шаховской. -М., 1973.-С. 26-29.
6. Божович Е.Д. Развитие языковой компетенции: проблемы и подходы. // Вопросы психологии, 1997, №1. С.33 - 34.
7. Лурия А.Р. Язык и сознание. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1998. – 335 с. – Библиогр.: с. 321-335.
8. Дорожкина О.А., Дронова В.Н. Социально-педагогические аспекты формирования диалогической компетентности младших школьников // Социально-экономические явления и процессы. – 2013. – № 1. –С. 259-264
9. Дронова В.Н. Особенности речевой деятельности ребенка, поступающего в первый класс //Гаудеамус. – Тамбов, 2002. – № 2 (2). – С. 138-148.